

**Yorqinoy Hamidjonovna Qipchaqova
Fardu, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini o'qituvchisi**

**BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYALI
YONDASHUV**

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy ta'limga jahon standartlariga javob bera oladigan va xususan, boshlang'ich ta'limga sohasida faoliyatni boshlashi lozim bo'lgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash masalalariga e'tibor beradi va bunda aynan qanday, qaysi jihatlarning dolzarb ekanligi to'g'risida fikr-mulohaza bildirishga ham ahamiyat berildi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'limga, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, axborot kompetentligi, kompetensiya, o'quvchi, ta'limga, tarbiya, innovatsion faoliyat, innovatsion ta'limga, kasbiy tayyorgarlik.

Jahon standartlariga mos mutaxassislar tayyorlashning yuqori darajasini ta'minlash uchun sharoitlar yaratish, zamonaviy oliy ta'limga bitiruvchilarini tanqidiy fikrlashini shakllantirish, kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalar majmuasiga ega bo'lishi uchun zaruriy bazani yaratish, shu jumladan, innovatsion faoliyatga, innovatsion ta'limga muhitiga kasbiy tayyorlikni talab qiladi. Respublikamiz mustaqil davlat sifatida demokratik jamiyat qurish, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rinni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bu o'z navbatida umumiy o'rta ta'limga muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan belgilanadi. O'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta'limga-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohalarida aks etadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z fanini o'qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta'limga jarayonini tashkil etishi va baholash uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallashdan iborat. Shu bois, o'qitish va tarbiyalash jarayoni ta'limga sohasida innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etishni va o'z-o'zini rivojlantirishni ham dastlabki qatorda talab etmoqda. Respublikada o'quvchilar uchun boshlang'ich umumiy ta'limga davlat ta'limga standarti joriy qilingan kundan boshlab hozirgi kunga qadar turli kichik maktab yoshidagi o'quvchilarini o'qitish uchun o'qituvchilarini tayyorlash masalasi va unga dair qaror vazifalarining barchasi boshlang'ich ta'limga sohasidagi o'qituvchilarining innovatsion faoliyatiga qo'yiladigan talablarni oshirish, ularning funksional vazifalarini kengaytirish, kasbiy ahamiyatga ega va shaxsiy xususiyatlarni o'zgartirishga olib keldi. Kasbiy tayyorgarlikning innovatsion usullaridan biri ta'limga dinamik shakli bo'lgan o'qitish bo'lib, uning davomida zamonaviy ta'limga boshqarish talablariga javob beradigan bilim, ko'nikma va malakalarni faol o'zlashtirish asosida amalga oshiriladi. Bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy ta'limga tayyorlash, aynan innovatsion ta'limga muhitiga tayyorgarligini oshirish masalasi bo'yicha dunyoda qator olimlarning ish olib borganliklarga guvoh bo'lish mumkin. A.V.Shcherbakov, A.P.Bostanji, A.P.Panfilov, G.M.Kodjaspirov, V.E.Kagan, Yu.V.Gluzman, O.A.Denisova, O.L.Lexanova, V.N.Ponikarova, T.V.Gudina, M.M.Esengulova, L.P.Fetaliева va shu kabi boshqa olimlarning tadqiqotlarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi masalasiga jiddiy to'xtalganliklari hamda bunda asosiy e'tiborni aynan say jihatga qaratish lozimligi yuzasidan dolzarb fikrlar o'z aksini topganligini ko'rish mumkin. A.S.Abulgatina, A.A.Ibragimova, S. N.Ispulova, E. V. Eremenko, I. V.Rudin, N.A.Medova, A.I.Sergeevalar esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv va ijtimoiy kompetentsiyasini shakllantirishda turli faol metod va texnologiyalarni taklif etadilar. Biroq, innovatsion ta'limga muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion

faoliyatga kasbiy tayyorlashda o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish muammosi ilmiy qiziqish doirasidan tashqarida qolganligini ham aytib o‘tish joiz. Shu sababli ham bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion ta’lim muhitida innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini shakllantirishning samarali vositasi sifatida o‘qitish texnologiyalarining mohiyatini ochib berishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish masalasiga ham chuqur yondashish lozim nazarimizda. Bunda turfa treninglarni tashkillashtirish ham ahamiyatlidir. Bu bilan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida amaliy jarayonlar haqida tassavur olamining kengayishiga erishish mumkin. Ma’lumki, pedagogik lug‘atda «trening»ning ilmiy ta’rifi interfaol ta’lim shakli sifatida qaraladi, uning maqsadi shaxslararo va kasbiy xulq-atvorni rivojlantirishdir. Biroq treningning o‘ziga xos «atributlari» borligini ham esdan chiqarmaslik zarur. Bularga trening guruhi kiradi; o‘quv doirasi; maxsus jihozlangan xona va o‘quv jihozlari (flipchart, markerlar); murabbiy; guruh qoidalari; o‘zaro ta’sir va muloqot muhiti; o‘qitishning interfaol usullari; o‘quv mashg’ulotining tuzilishi; o‘qitish samaradorligini baholash. Ushbu ketma-ketlikda sanalgan kontsepsiyanı talqin qilishning bir nechta paradigmalari mavjud, bular: o‘qitish o‘ziga xos trening sifatida; samarali xulq-atvor ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirishga olib keladigan trening sifatida; o‘qitish faol ta’lim shakli sifatida, uning maqsadi, bиринчи navbatda, psixologik bilimlarni uzatish, shuningdek, muayyan ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish; trening ishtiroychilarning o‘zini o‘zi ochishi va o‘zlarining psixologik muammolarini hal qilish yo‘llarini mustaqil izlash uchun sharoit yaratish usuli sifatida. Ta’lim texnologiyalari faol o‘qitish usullari tizimining asosiy elementi hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishdan maqsad mutaxassisning kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi va uning kasbiy mahorat darajasini belgilaydigan mavjud bilimlar asosida talabalarda maxsus ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdir. Mazkur maqolada yoritilishi maqsad qilingan muammoimiz kontekstida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion ta’lim sohasidagi innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorlashda treninglardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish alohida ahamiyatga ega, chunki bu treninglar bizga kasbiy va shaxsiy o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirish zarur shart-sharoitlarni amalga oshirishga imkon beradi. Bu oliy ta’lim bitiruvchilari uchun muhimdir. Trening davomida norasmiy, majburiy bo‘Imagan muloqot yaratiladi, bu guruh uchun muammoni ishlab chiqish va hal qilish uchun ko‘plab imkoniyatlarni ochadi. Trening bo‘lajak mutaxassislarining faol-kognitiv va aqliy faoliyati faollashtirilgan, zamонавиу fanlar olamini o‘rganishga qaratilgan sinflarda innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligi shakllanadigan qulay makonni ta’minlaydi. Ushbu pedagogik innovatsiyani kasbiy kompetensiyanı rivojlantirish, turli kasbiy va shaxsiy, jismoniy fazilatlar, qobiliyat va imkoniyatlarni shakllantirish va takomillashtirish maqsadida o‘qitishni pedagogik, ta’lim, kasbiy, hayotiy vaziyatlarni o‘yin modellashtirish usuli sifatida belgilaydigan boshqa tadqiqotchilarning tushunishiga ham, ya’ni bo‘lajak mutaxassisning malakasini oshirish, o‘quvchilarni mashg’ulot vaziyatiga ishtiroychilar va tomoshabinlar sifatida jalb qilish orqali o‘z-o‘zini anglash va xulq-atvorning adekvatligini oshirishga ham qarshi emasmiz. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda yuqoridaqilardan tashqari yana e’tibor berilishi lozim bo‘lgan qator omillar mavjud. Shu sababli ham bu boradagi tadqiqotlarda turli yondashuvlarga murojaat qilish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda axborot kompetentligini rivojlantirish masalasiga ham e’tibor berish ham o‘ta muhimdir. Tayanch darajadagi axborot kompetentlik ostida insonning kundalik hayotida va jamiyatda sodir bo‘ladigan haqiqiy vaziyatlarda yuzaga keladigan ijtimoiy ahamiyatli vazifalarni hal etish uchun axborot faoliyatining turli ko‘rinishlarini samarali amalga oshirish va yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishga qadriyatli munosabat, bilim va ko‘nikmalarining majmuini ifodalovchi shaxs sifatlarini tushuniladi. O‘qituvchining axborot kompetentligi maktab bitiruvchisining axborot kompetentligini rivojlantirish sifatida xizmat qiladi va ta’lim beruvchi — pedagog tomonidan bilim, ko‘nikmalar va axborot faoliyati turli ko‘rinishlarini samarali amalga oshirish hamda kasbiy ta’limiy faoliyatda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishga qadriyatli munosabatlar majmuini aks ettiruvchi, pedagogning kasbiy-shaxsiy sifati tariqasida tushuniladi.

Bunga kasbiy yo‘naltirilgan bilimlar, ko‘nikmalar va o‘qituvchi uchun xos bo‘lgan axborot faoliyatini amalga oshirish motivatsiyasi, yangi axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga tayyorgarlik kiritiladi . Ayni zamonaviy ta’lim sharoitida soha mutaxassislarida axborot kompetentligining rivojlanganligi juda ahamiyatli masaladir. Shu jumladan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ham mazkur kompetentlikning rivoj topganligiga e’tibor qaratish, yoxud ta’lim sohasida faoliyat olib boruvchi har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirish keljak avlod vakillariga zamonaviy bilim berishning zaruriy shartlaridan biridir deyilsa, sira mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki, axborot kommunikatsion jarayonlarining tobora jadallahushi bugun har haysi sona vakilidangina emas, balki ta’lim jarayonida faoliyat olib borayotgan har qaysi fan o‘qituvchisidan axborot kompetentsiyasining kerakli miqdorda rivoj topganligini talab qilmoqda. Chunki amaliy jarayonlarda bugun axborot kommunikatsion vositalaridan foydalanmasdan yetarli va yoxud ko‘zlangan natijaga erishish amrimahol bo‘lib qoldi . Pedagogik tizimda yangi elementning paydo bo‘lishi, yangi axborot texnologiyalari ko‘p jihatdan uning funksiyalarini o‘zgartiradi va yangi pedagogik samaraga erishishga imkon beradi. O‘qitishning yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchining kasbiy imkoniyatlarini ahamiyatli oshiradi, uning pedagogik kompetentligining chegaralarini kengaytiradi va demak, uning kasbiy faoliyatining mahsuldarligini oshirishga, ya’ni ta’lim sifatini yuksaltirishga xizmat kiladi. O‘qituvchining boshlang‘ich ta’lim o‘quv jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha faoliyati strukturasini modeliga muvofiq ravishda pedagogik ko‘ikmalar orqali ko‘rib chiqish ham juda e’tibot talab masalalardan biri sanaladi .

Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion davrning talablarini inobatga olgan holda, innovatsion ta’lim muhiti va uning qizi‘in jarayonlariga tayyorlash masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan ekanligini alohida ta’kidlash lozim. Hamda bu borada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida zamonaviy ta’limning innovatsion jarayonaridan, innovatsion texnologiyalaridan xabardor qilish, ularda axborot kompetentligini ham rivoj toptirish, pedagogik tizimda ayni avqtda axborot kompetentligining o‘qituvchi shaxsida aks etishi naqadar muhim ekanligini ham nazarim ham amaliy jihatdan anglashlariga imkoniyat yaratish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni oshirishning eng oldu o‘rinlarda turuvchi vazifalari deb aytish mumkin.

Foydalanimanligi adabiyotlar:

1. Qipchaqova Yo., & Soxibova F. (2022). MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI JISMONIY TARBIYALASH MUAMMOLARI. Мировая наука, (3 (60)), 18-21.
2. Qipchaqova, Y. H. (2022). MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Research Focus, 1(2), 340-347.
3. Qipchaqova, Y. (2022). MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI TARBIYALASH SOHASIDAGI XORIJ MAK TABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TAJRIBALARI. Science and innovation, 1(B8), 106-111
4. Kipchakova, Y. (2021). METHODOLOGICAL AND DIDACTIC ASPECTS OF INFORMATION AND INTELLECTUAL CULTURE IN THE EDUCATION OF A DEVELOPED GENERATION. Экономика и социум, (6-1), 156-159.
5. Kipchakova, Y. X., & Kodirova, G. A. (2020). INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION. Теория и практика современной науки, (5), 29-31.

6. KIPCHAKOVA, Y., ABDUXAMIDOVA, M., & RAXMONALIYEVA, (2021)M. THE IMPACT OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN IMPROVING STUDENT KNOWLEDGE. СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Интернаука", 37-38.
7. Қипчақова, Ё., Махмудова, М., & Умарова, З. (2021). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР МЕҲНАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТИ. Студенческий вестник, (22-7), 9-10.
8. Қипчақова, Ё., Соибжонова, Ш., & Абдуқаюмова, С. (2021). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ. Студенческий вестник, (22-7), 11-12
9. Kipchakova Yorkinoy, (2023) PERSONAL DEVELOPMENT OF A FUTURE TEACHER AS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL TRAINING Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) April 2023. (181-187)
10. Yorqinoy Qipchaqova , Kasimova Muxlisa Hamdamovna (2023/4/14) PEDAGOGIK MAHORAT VA UNING O'QITUVCHI FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI IQRO.jurnali (477-484)
11. Y.H. Qipchaqova (2023/4/14) Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faolligini rivojlantish. IQRO jurnali (485-493)
12. Y. Qipchaqova U.Xalilova, I. Mirzaolimova (2022/1/20) Bo'lajak o'qituvchilarning integrativ faoliyatning loyihali komponenti "Ilm-zakovatimiz – senga, ona-Vatan!" mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materillari 3-tom (116-b)
13. Qipchaqova Yorqinoy. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA CHET TILLARINI O'QITISHGA O'ZARO TA'SIR ETISH OMILLARI. Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 11(10), 3–5.
14. Kipchakova Yorkinoy (2023). ISSUES OF INTERACTION WITH LANGUAGE TEACHING IN PRIMARY EDUCATION. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(12), 780–782
15. Hamidjonovna, Y. Q. (2023). SHAXS RIVOJLANISH JARAYONI, TARBIYASI VA UNING IJTIMOIYLASHUVI. Научный Фокус, 1(2), 475-480.
16. Kipchakova Yorkinoy. (2023). SOME PROBLEMS OF PREPARING PRIMARY CLASS TEACHERS FOR INNOVATIVE ACTIVITY. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(12), 777–779. Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/841>
17. Kipchakova, Y. (2021). Methodological And Didactic Aspects Of Information And Intellectual Culture In The Education Of A Developed Generation. Экономика и социум, (6-1), 156-159.
18. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjanovna Kasimova Muxlisa Xamdamovna. (2023). FACTORS TO IMPROVE THE PEDAGOGICAL SKILLS AND PROFESSIONAL CULTURE OF THE

EDUCATOR. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 35–38.
Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/320>

- 19.QIPCHOQOVA Yorqinoy, MADRAHIMOVA Mohiraxon Imomaliyevna (2023) MAKTABGACHA TA'LIMDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ZARURIYATI «Педагогик ва психологик тадқиқотлар» (6-11)
20. Yo.H.Qipchaqova (2022) Maktabgacha yoshdagi bolalarni zamonaviy yondashuv asosida tarbiyalash. Xorazm Ma'mun Akademiyasi 11/3 2022.(143-145)
21. Qipchaqova Yorqinoy (2023-yil 10-noyabr) *BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TIL O'QITISHGA O'ZARO TA'SIR ETISH MASALALARI* “TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR” RESPUBLIKA-ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI (25-28)
22. Qipchaqova Yorqinoy (2023-yil 10-noyabr) *BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING AYRIM MUAMMOLARI* “TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR” RESPUBLIKA-ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI (42 -44)
23. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjanovna, Ergasheva Maftuna Davlatjon qizi. (2023). ISSUES OF TEACHER SKILLS IN THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL IDEAS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(09), (129–133). Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/185>
24. Y.H. Kipchakova. (2023). PREPARATION FOR PROFESSIONAL ACTIVITY BY DEVELOPING INNOVATIVE ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS. International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management, 2(3), 243–262. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7745915>
- 25.Dilshoda JalilovaUral qizi,Shahzoda Jamilova “BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING E'TIBORLI JIHATLARI ‘YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA IQTISODIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI 16-iyun, 2023- yil,397-400 b